

Xalq talimi vazirligi
A.Qodoriy nomli J.D.P.I‘’Maktabgacha
talim yo‘nalishi ‘’207-gurux talabasi
Tursunqulova Umidaning‘’Maktabgacha
Pedagogika’’ fanidan yozgan

REFERAT



Jizzax 2012

Mavzu; Mexnat faoliyati jarayonida bolalarni aqliy tarbiyalash.

Reja;

1. Aqliy tarbiya haqida tushuncha .
2. Bolalarda mexnat faoliyati haqida tushuncha.
3. Mexnat faoliyati jarayonida bolalarni aqliy tarbiyalash.
4. Talim aqliy tarbiya vositasidir.
5. Mexnat faoliyatida bolalarni aqliy rivojlantirishni amalga oshirish usuli.

Adabiyotlar

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi P.Yusupova

Maktabgacha tarbiya Pedagogikasi V.I.Loginova , P.G.Samorukova

Tarbiyachiga bolalarning rivojlanishi haqida A.A.Lyublinskaya

Maruzalar matni

Enternet malumotlari .

Savollar

1. Aqliy tarbiyaning vazifalari nechta ular qaysilar ?
2. Xilma hil mehnat faoliyatida bolalarni aqliy rivojlantirish qanday sharoitlarda amalga oshiriladi ular qaysilar ?
3. Mehnat deb nimaga aytiladi ?
4. Bolalar xo'jalik maishiy mehnati deb nimaga aytiladi ?
5. Mehnat talimi jarayonida va uni tashkil etishning xamma shakllarida xar hil metod va usullardan foydalanish muxim axamiyat kasb etadi bular qaysilar ?
6. Aql deb nimaga aytiladi ?

Tayanch so'z va iboralar

Mehnati , aqliy , xatta – xarakat , material , psixik , axloqiy , estetik , diqqat , aql , maqsad , sezgi , faoliyat , nutq , xotira , idrok , tafakkur , xayol , ong , talim , tarbiya , sistemalashtirish , munosabat , faoliyat .

Aqliy tarbiya haqida tushuncha.

Aql keng manoda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va xayolni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir.

Aqliy faoliyat diqqatning xar doim malum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab etadi . Kishining aqli uning asosiy faoliyatida uning erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan belgilanadi .

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning malum maqsad bilan tasir etishidir U bolalarga tevarak atrofdagi olam haqida bilimlar berishni , ularni sestemalashtirishni , bolalarda bilishga qiziqish uyg'otishni aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishni , bilish qobilyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi .

Bolalarni maktabga tayyorlash aqliy tarbiyaning roli ayniqsa kattadir . Bilimlar zaxirasini egallash , aqliy faollikni va mustaqillikni rivojlantirish , aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirish maktabda muvaffaqiyatli o'qishva bo'lg'usi mexnat faoliyatiga tayyorlanishning muxim shartidir .

Bolalarning 6 yoshdan boshlab maktabda o'qishga o'tishi munosabati bilan ularni maktab talimiga tayyorlash uchun aqliy rivojlanishi yetarli darajada bo'lishini taminlash tarbiyachilarning javobgarligini yanada oshiradi . Aqliy kamolot – bu yoshning o'sib , tajribaning boyib borishi munosabati bilan tarbiyaviy ishlar tasirida bolaning aqliy faoliyati ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlarining majmuasidir . Maktabgacha tarbiya yoshida bilim tez suratlar bilan boyib boradi , nutq shakllanadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi . Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishinitaminlash ularning kelajakdaji butun faoliyati uchun katta axamiyatga ega bo'ladi .

Bola ijtimoiy muxit tasirida aqliy tomondan jivojlanib boradi. Tevarak atrofdagi kishilar bilan muomila qilish jarayonida u tilni va u bilan birga tarkib topgan tushunchalar sestemasini o'zlashtiradi . Natijada maktabgacha tarbiya yoshidayoq bola tilni shunchalik egallab oladiki , undan muomila vositasi sifatida erkin foydalana oladigan bo'lib qoladi .

Aqliy rivojlanish fikrning kengligiga voqealarning har xil bog'lanishlarda , munosabatlarda ko'ra bilish umumlashtirish qobilyatida namoyon bo'ladi .

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi faoliyati jarayonida dastlabki muomilada bo'lish narslar bilan bajariladigan faoliyat natijasida keyin esa o'quv , mexnat samarali faoliyatlar jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolalarning aqliy rivojlanishiga talim va tarbiya samaraliroq tasir etadi xozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sestemasini o'zgartirib olish ularni jamg'arish ijoboy tafakkurni rivojlantirish xamda yangi bilimlar xosil qilish uchun zarur bo'lgan bilim faoliyati usullarini egallab olishni aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatgichlari deb xisoblaydi.

Olimlar aqliy rivojlanish va aqliy tarbiyaga oid ko'gina masalalarni tadqiq etmoqdalarki , bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar aqliy tarbiyasibni asosi bo'lgan sensor tarbiyaning mazmun va metodini ishlab chiqish uchun zarurdir; bolalarni ko'rgazmali- xarakatli , ko'rgazmali-obrazli va tushunchali – mantiqiy tafakkurini shakllantirish tadqiq etilmoqda , ularning bilish qobilyatlarini shakllantirishning o'ziga xos tomonlarini aniqlamoqda .

Bolalarning bilimlarini egallab olishlari , ularning aqliy faolligini rivojlantirish mustaqillik aqliy malaka va ko'nikmalarni egallab olishlari

ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi va bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo'lib xizmat qiladi .

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari qo'yidagilardan iborat ;

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar sistemasini ilmiy dunyoqarashni sharllantirish .
2. Bilishga doir ruxiy jarayonlarni rivojlantirish; sezgi, idrok , xotira , xayol , tafakkur nutq.
3. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni , aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish.
4. Aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish.

Maktabgacha yosh davrida bola xar kuni o'zi uchun notanish bo'lgan narsa va xodisalarga duch keladi. N. Tolstoy maktabgacha tarbiya yoshi haqida shunday deb yozadi; “ Men xazirda o'zimda bor bo'lgan xamma narsani o'sha yoshlik chog'imda egallab olganmanki , egallaganda xam shunchalik ko'p , shunchalik tez egallaganmanki , butun qolgan xayotimda bu egallagan narsamning yuzdan birini xam egallaganim yo'q .Besh yoshli boladan mengacha atiga bir qadam . Yangi tug'ulgan chaqaloqdan besh yoshli bolagacha esa masofa juda uzoq.”

Biroq tegishli raxbarlik bo'lmasa , bilim va tasavvurlar tartibsiz bir tarzda to'planib boradi; ular yuzaki ko'pchilik xolda xato xam bo'lishi mumkin . Pedagogning vazifasi bolalardagi bilimlarni muntazam ravishda oshirib borish , ularni tartibgasolish,aniqlashtirishdir.Bilimlarni egallab borish natijasida bolaning shaxsi xam shaklanib boradi.Bola sanatning xar hil turlari to'g'risida tasavvur va tushunchalarni egallab boradi.

Bolalarda mehnat faoliyati haqida tushuncha

Mehnat tarbiyasi- yosh avlodda mehnat qilishga tayyorgarlikni shakllantirish , kommunistik jamiyat qurishda amaliy ishtirok etishga intilish ko'nikmasini tarkib toptirishni aniq maqsadga qaratilgan jarayoni , mehnatga kommunistik munosabatni shakllantirish jarayonidir. Mehnat tarbiyasi yoshlarni mehnat faoliyatiga doir bilim , ko'nikma va malakalarni o'z ichiga olgan mehnat tarbiyasini muvaffaqiyatli o'zlashtirib olishiga , ularda mehnat va mehnat axliga axloqiy munosabat uyg'otishni , shaxsga har tomonlama kamol toptirishga qaratilgandir .

Mehnat ijtimoiy taraqqiyotning manbai barcha moddiy va manaviy ehtiyojlarni qondirishning asosiy shart – sharoitidir , shu bilan birga inson hayotiy faoliyatining asosiy shaklidir . Kishi hayotining mazmuni har bir jamiyat azosining vazifasi shaxs taraqqiyotining asosidir. Mehnat qadimdan jamiyatning azosining vazifasi , shaxs taraqqiyotining asosidir

Mehnat qadimdan jamiyatning axloqiy prinsipi xisoblanib kelingan . Mehnat – faqat shaxsiy farovonlik manbaigina emas , balki xalqqa xizmat qilish , vatanimiz gullab yashnashi uning qudratini oshirishning asosi hamdir . Madaniyatli kishi mehnatsevar bo'lib yetishadi. Mehnat ni sevmaydigan va qadrlamaydigan odamdan madaniyatli kishi chiqmaydi. Insonning ongliligi tarbiyalanganligi avvalo mehnatga bo'lgan munosabatida ko'rinadi.

Mehnat insonni ulug'laydi, guzallikka chorlaydi. Mehnat qilmaydigan inson hayoti zerikarlidir . U manaviy qashshoq , jismoniy zaif bo'ladi. Uzoq umr ko'rish siri ham mehnatdir . Mehnat qilmasang xatto buyuk istedod ham so'nadi, mehnat har qanday qobiliyatni rivojlantiradi. Terlab pishib qilingan mehnat erta xosil beradi, mehnatdan qobiliyat , qobiliyatdan istedod, undan keyin esa daxolik paydo bo'ladi. Xammasining zamirida sidqidildan qilingan mehnat yotadi.

Mexnat xar bir yosh guruxdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini etiborga olib tashkil etiladi, unga to'g'ri raxbarlik qilgandagina etarli natijaga erishish mumkin. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnatini o'ziga xos tomonlari ko'pgina olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda keng o'rganib chiqilgan . Bolalar mehnatining muxim belgisi uning maqsadga qaratilganligidir. Kichik bog'cha yoshidagi bolalarning mexnati biror jarayonga oid xarakat qiladi , u faqat kattalarning raxbarligi natijasidagina amalgam oshirishi mumkin .

Bola ko'biklarni bir joydan ikkinchi joyga mashinadan stolga , stoldan – mashinaga ko'chadi va xokazo. Tarbiyachiga olib borishini aytadi . Katta gurux bolalarida mustaqil maqsad qo'yish qobilyadi moddiy samara beradigan mexnat turlarida muvaffaqiyatli rivojlanadi.; gulzorda , ekinzorda ishlash o'yinchoqlar yasash va boshqalar . Faoliyatini rejalashtirish mehnat tarbiyasining muxim tarkibiy qismi xisoblanadi. Bolalarni kuzatish ular faoliyatining tartibsiz , rejasiz ekanligini ko'rsatadi . Bolalar bunday xarakatlar orqali biror natijaga erishish uchun juda ko'p vaqt va kuch sarflaydilar.

Tarbiyachi bolalarni o'z faoliyatini taxminiy rejalashtirib olishlariga o'rgatishi ular faoliyatiga raxbarlik qilish lozim . Shunday qilib butun bog'cha yoshi davrida mexnat va o'yin o'zaro bog'liq holda kechadi biroq xar qanday holda xam bolalar mehnatini o'yinga almashtirish ularning farqini yo'qqa chiqarish noto'g'ri bo'lur edi . Tarbiyachilar va ota – onalar tasirida asta sekin bolalar mehnati va vazifasi . mazmuni metodi va tashkil etilishi bilan mustaqil faoliyat sifatida ajratib boriladi . Mehnatda uning beradigan samarasi faoliyatining majburiy tarkibiy qismi xisoblaydi . Ammo bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishda mexnat natijasiga bolalarda

mehnatga havas xissini tarbiyalash uchun yordam beradigan pedagogic oil deb qarash kerak .

Mexnatda natijaga erishishda , mexnat malakalarini shakllantirishda pedagogning va bolalar o'rtoqlarining baxosi va o'ziga o'zi baxo berish katta ahamiyatga ega . Bolalar yasagan buyumlar o'yin va mashg'ulotda qo'llanilsa ular o'zlari yasagan buyumlar yanada sifatli bo'lishiga intiladilar Maktabgacha yoshi davrida bolalarning yoshi ulg'ayishi bilan mehnat sabablari ham o'zgarib boradi . Z. Neverovich , E.Obrasovlarning olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida shuni ko'rsatdiki bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali ular kattalarda mehnatning ijtimoiy sababini ancha erta o'zlashtirib olar ekanlar. Lekin ular biror ishni mustaqil bajargandagina o'z mehnatlari boshqalar uchun foydali ekanligini ongli ravishda bilib oladilar . Masalan ; onalar va buvilar uchun 8 – martga sovg'a tayyorlash . kichik gurux bolalar maydonchasini yig'ishtirishga yordamlashish yirtilgan kitoblarni yamab berish , konsert va teatr qo'yib berish va boshqalar bolalarda mehnatning muayyan natijasiga erishish uyg'otadi, faoliyatning ijtimoiy sabablarni anglatib , mehnatga havasini ishni bajarishda bolalarning o'z oldilariga qo'yadigan talablarini oshiradi .

I.Loginovanning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida takidlashicha bolalarga mehnat tarbiyasi berish uchun ular mehnat va mehnat malakalari to'g'risidagi bilimlar sistemasini o'zlashtirib olishlari kerak ekan;

1. Mehnat maqsad qo'yish va uning natijasini belgilab olishdan boshlanadi ; maqsad- mehnat tasviri.

2. Mehnat qilishdan ko'zlangan maqsad bo'yicha kerakli materiallarni tanlab olish.

3. Materialni ishlash uchun kerakli asboblarni tanlab olish .

4. Natijaga erishish uchun mehnat xarakatlarini bajarish.

Mexnat faoliyati jarayonida bolalarni aqliy tarbiyalash.

Bolalarning mehnat faolyatida ularning aqliy tarbiyasi uchun katta imkonyatlar bor. Maktabgacha yoshdagi bolaga beriladigan har bir mehnat topshirig'i, qanchalik oddiy bo'lmasin, daslabki paytlarda malum darajada aqliy vazifadan iborat bo'ladi. U nima qilishni, nima uchun qilishni, buni qanday bajarish kerakligini tushinishni anglashi; topshiriqni bajarish shartlarini tahlil qilib chiqishi, ishlashi lozim bo'lgan material va "asboblarni" ni diqqat bilan ko'zdan kechirishi, ularning xossalarini, bo'lg'usi ishga muvofiqligini idrok etishi va baholashi kerak. Ayrim holarda u tafsia qilinayotgan harakat rejasi va usullarini qabul qilishi, boshqa holatda esa bu usulni o'zi belgilashi, o'z ishining pirovart natijasini aniq, obrazli shaklda tasavvur qilishi mumkin. Mehnat harakatlarini bajarish jarayonida, xuddi tasviriy faolyatdagi kabi, bola o'zining tasiri natijalarini idrok qilishi va uni yakuniy obraz nuqtai nazaridan baholashi kerak. Shu munosabat bilan unda tafakkurning murakkab analitik-sintetik faolyati, muayyan sensor qobilyatlar, o'z ishini oddiy ravishda rejalash malakasi talab etiladi. Shu bilan birga bolada muayyan bilim, ko'nikma va malakalar bo'lishi ham talab qilinadi. Bolaning mehnat faoliyati va shaxsning mehnat qilish bilan bog'liq bo'lgan psixik sifatlari faqat bilim, ko'nikma va malakalar birligi tufayli tarkib topadi.

Mehnat bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishlari ortib borishiga katta tasir ko'rsatadi. Bolalarning faol bilish faolyati va yangi bilimlar bilan bog'liq mehnat bilishga qat'iy qiziqish uyg'otadi. Shunday qilib, bolalarning tabiatdagi hilma-hil mehnati ularda tabiat hodisalarining sifati, xossalari va

o'ziga hos tomonlari haqida aniq tasavvurlar hosil qilish, uni sensor nuqtayi nazardan tekshirish usullari bilan qurollantirish imkonini beradi.

Bolalarning turli xil mehnat jarayonlarida ishtirok etishlari , kattalar mehnati bilan tanishishlari ularning tevarak atrofdagi hayot haqida kishilarning o'zaro munosabatlari to'g'risida , narsalar va ularning xususiyatlari , materiallarga ishlov berish usullari haqida , qurilmalar va asboblari to'g'risida muayyan tasavvurlarga ega bo'lishlariga yordam beradi .

Mexnat bolalarda diqqat , o'tkir zexinlilik , topqirlik bilib olgan malaka va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay bilish , ijodkorlik qobiliyatlarini egallashni talab etadi . Mexnat jarayonida bolalar ayrim ish turlarini (bir varag' qog'ozni buklash , kerakli uzumlikni o'lchash , andazaga qarab shaklni qirqib olish kabi xarakatlarni) anglatuvchi bir qancha tushuncha va atamalardan foydalanishni , bajarilgan ishdagi izchillikni so'zlab berishga to'g'ri keladi . Bular bola nutqini yangi so'zlar bilan boyitadi , uning mantiqiy bog'liq ravishda Grammatik jixatdan to'g'ri shakllanishiga imkon beradi .

Bolalar eng oddiy mexnat qurollari materiallarga ishlov berish usullari bilan tanishtirish kerak . Bog'chadagi mexnat ularni maktabdagi politexnik talimga tayyorlaydi . Mexnatning axloqiy qimmati uning jamiyat uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi . Mehnat xar bir bolani o'z mehnatining ijtimoiy ahamiyatini tushunib yetishga uning jamiyat xayotiga kirib borishiga o'zini shu jamiyatning a'zosi deb xis qilishiga imkon yaratadi .

Har bir bola oilada , bolalar mexnatida o'z ulushi borligini xis eta bilishi lozim . Ishning shu tarzda tashkil etilishi bolalarda jamoachilik va intizomlilikni , burj xissini tarbiyalaydi. Shuning uchun bolalarni jamoa

mehnatida tarbiyalash muxim ahamiyat kasb etadi . Mexnatning bolalarni aqliy tomondan rivojlantirishdagi ahamiyati shundaki , mexnat jarayonida ular borliqni faol anglay boshlaydilar, dunyoni materialistik idrok etish imkoni yaratiladi .

Bog'cha yoshidan boshlab bolalarga mehnat tarbiyasi berish ularni estetik va jismoniy jihatdan ham rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshi davrining o'ziga xos tomonlaridan yana biri bolalar mehnatining o'yin bilan bog'liqligidir . O'yin jarayonida biror xarakter doimo biror mehnat jarayonini aks ettirishga yo'naltirilgan bo'ladi . Ikkinchi tomondan , mexnat jarayonini bajarishda uni o'yin shakliga aylantirishda , masalan barglarni zambillarda tashishadi , mashinalarda yurishadi . Shu bilan birga o'zining xususiyati mazmuni , yuzaga kelish sababiga ko'ra mehnat va o'yin bir biridan farq qiladi . Mehnatda maqsad qo'yiladi , uni amalga oshirish uchun shart – sharoit yaratiladi , vositalar izlab topiladi . O'yinda esa bolalar kattalarning mehnat faoliyatiga taqlid qiladi . O'yinda mexnat singari biror aniq natijaga erishilmaydi , ammo u mehnat singari bolalarga quvonch bag'ishlaydi, ular o'zlarida qoniqish xissini sezadilar. O'yinda bola o'yin o'ynaganini rivojlantirishi yetakchi rolni o'ynaydi , mehnatda natijaga erishish uchun mehnat xarakatlari bajariladi .

Bolalarning mehnat faoliyati qachon va qanday qilib o'yindan ajratiladi Kichik bog'cha yoshidagi bolalar mehnatining asosiy turi o'z o'ziga xizmatdir . Bu kichik bolalar uchun ancha mashaqqatli ish . Shuning uchun bu yoshdagi bolalar mehnatining bu turiga o'rgatishda ko'pincha o'yin vaziyatidan foydalaniladi . Mehnat tarbiyasining asosiy maqsadi bolalarni har tomonlama rivojlantirish axloqli qilib tarbiyalash kelajakdagi mexnat

faoliyatiga ruxiy jaxatdan tayyorlash mehnat qilish xoxishini singdirib borishdir.

Talim aqliy tarbiya vositasidir.

Bolalar bog'chalariga doir tajribalar va o'tkazilgan pedagogik va psixologik ilmiy tadqiqot ishlari xar hil yoshdagi bolalarga tevarak atrof to'g'risida beriladigan bilimlarning taxminiy xajmini belgilash , ularni murakkablashtirib borish imkonini beradi .

“Bolalar bog'chasida talim tarbiya dasturida bolalarning tevarak atrofdagi xayot bilan tanishishlariga doir asosiy bilimlar ko'rsatib berilgan . Bular bolalarni tabiat bilan , har xil kasbdagi kishilar mehnati bilan , bazi bir ijtimoiy vaqealar , narsalar ularning sifat va xususiyatlari bilan tanishtirishdir . Bolalar bilimlarini faqat mashg'ulotlar jarayotida olmay balki o'zlarining kundalik hayotlarida o'yinlarda sayr vaqtlarida ham olishlari dasturda ko'rsatib berilgan.

Bu dasturning asosiy bo'limlari quydagilardir: tevarak atrof bilan tanishtirish va ishtimoiy hayot xodisalariga qiziqishni ona yurtga muxabbatni tarbiyalash, tabiat haqidagi tasavvurlarni shakillantirish, nutq o'stirish, eng oddiy matematik tasavvurlarni o'stirish, qurish yasash badiiy adabiyot, tasviriy sanat, mo'siqa, jismoniy tarbiya.

Talim dasturi quyidagi prinsipga asoslanib tuzilgan: bilimning bolalarga tushunarligi, har bir yoshga hos bilim va malakalar, ularni sekin asta murakkablashtirib borish, materialning bir maqsadga qaratilganligi, maxalliy matireallardan foydalanish, tabiatdagi voqeyalar talimga doir bilimlar orasidagi bog'liqlik. 3- yoshgacha bo'lgan bolalarda tevarak – atrofdagi narsalar, ularning sifati xar hil narsalarning nomi hamda ularni ishlatish tog'risida to'g'ri tushuncha bo'lishi lozim.

Bolalarning uy jixozlari va buyumlari bilan tanishtirish ularning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir . Bu narsa ularning nutqini boyitadi , mustaqillik go'zallik haqidagi tasavvurlarni tarbiyalashga yordam beradi .

Bolalarga talim berish jarayonida tarbiyachi xar hil metod va usullarni qo'llaydilar. Bolalar bo'g'chalarida keng qo'llaniladigan metodlar sistemasiga qo'yidagilarni kiritish mumkin ; ko'rgazmali og'zaki , amaliy o'yin metodlari .

Bolalarga talim berishdan maqsad ularni aqliy tomondan rivojlantirish bo'lganligi sababli yuqoridagi metodlardan shunday foydalanish lozim , ular bolalarda mustaqil fikrlash , tanqidiy xulosalar chiqarishga imkon bersin. Metodlar talimning mazmuniga qarab tanlanadi . Agar talim berish metodini mashg'ulotning malum bir qismiga yoki ayrim mshg'ulotga qo'llanilsa, unda metod qismlarga bo'linib usulga aylanib ketadi .

Usul bu metodning bir qismi . Usul mustaqil vazifani hal etmaydi . Metod bajaradigan vazifaga bo'ysunadi . Shuning uchun bitta usulni har xil metodda qo'llash mumkin yoki har xil tarbiyachilar bitta metodga har xil usul qo'shishlari mumkin .

Metodlarning har bir guruxi tarbiyachi va bolalar faoliyatining o'ziga xosligini belgilab beradi.

Bolalarga bilim berishda talim metodlari va ularni tanlash materialning mazmuniga , bolalarning yoshiga va tayyorgarlik darajasiga bog'liq . Agar tarbiyachining oldida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni buyumlar , xayvonlar , qushlar bilan tanishtirish vazifasi tursa , ularni ko'zdan kechirish , kuzatish yoki tegishli suratlar diafilmlardan foydalanish eng maqsadga muvofiq metodlardan biridir ; agar bolalar xayvonni bilsalaru , lekin uning haqidagi tasavvurlarni aniqlash talab etilganda suratdan foydalanish

maqsadga muvofiqdir; agar xayvonlarning xatti xarakati to'g'risidagi tasavvurlarni kengaytirish zarur bo'lsa badiiy asarlardan foydalanish mumkin . Bolalarning savollari va unga tarbiyachi va ota onalarning javobi . Bolalar ko'pincha bilgan narsalarni so'raydilar ularning maqsadi o'sha narsaning to'g'riligiga ishonch xosil qilishdir . O'zaro fikrlashishni cho'zish xoxishi boshqalarning fikrini bilishga qiziqish bola savol berish ishtiyoqini uyg'otadi . Bu esa boladagi aqliy rivojlanishni yuqoriroq bosqichga ko'taradi

Bolalarning oldida kattalarning obrusi juda yuqori bo'ladi . Bola bilmagan narsasini bilish uchun tarbiyachi va ota onalarga ishonch bilan murojat qiladi . Mana shunda kattalar bolaning savoliga , uni qiziqtirgan narsa to'g'risida javob berishdan bosh tortsalar , bola boshqa manbalardan javob qidirishga urinadi , bular aksariyat ishonchsiz manbalar bo'ladi .

Bu bilan kattalar bolani aqliy rivojlanishiga to'sqinlik qiladilar , uning manaviy o'sishiga yordam beramaydilar. Bolani qiziqtirgan savollarga kattalar xar doim xam batavsil javob berishlari shart emas , agar bu savolga bolaning o'ziga yetarli bilim borligi sezilsa , u xolda bolani mustaqil fikrlashga undash lozim . Bolaning savollari uning bilim darajasiga mos bo'ladi . Avvaliga unga narsa va buyumlar nomini nimaligini aniqlovchi savollar beriladi . Shuning uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga talim berish jarayonida ularning fikrlashishi faollashtiradigan birorta xam metod yoki usul yo'qki , u darrov ijobiysamara bersin . Shuning uchun tarbiyachi talim beruvchi mashg'ulot mazmuniga qarab turli xil metod va usullardan foydalanadi.

Tarbiyachi asosan bolaning normal ruxiy taraqqiyoti asosi bo'lgan jismoniy rivojlanishiga aloxida etibor berishi lozim . Bolaning ko'p vaqt

xarakatsiz o'tirishi uning sog'lig'I uchun juda zararli , u bolaning xar tomonlama rivojlanishini sekinlashtiradi.

Mehnat faoliyatida bolalarni aqliy rivojlantirishni amalga oshirish usuli

Mehnat harakatlarining ancha takomillashgan usullarini egallab borishga qarab kuzatish faoliyati – buyumning muxim sifatlariga ko'ra bilish malakasi rivojlanib boradi.

Hilma xil mehnat faoliyatida bolalarni aqliy rivojlantirish qo'yidagi sharoitlarda amalgam oshiriladi;

1. bolalarni mexnat sharoitiga o'rgatishga pedagogik bilim , ko'nikma va malakalarni to'g'ri qo'shib olib boradi . Mehnat ko'nikmalarini bilim va aqliy malakalardan ajralgan xolda tarkib toptirish mehnatning rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi tasiri kamayishiga olib keladi;
2. u yoki bu mehnat topshiriqlarini bajarishda bolalarni (mavjud bilim , ko'nikma va malakalar asosida) tashabbus , mustaqillik , ijodkorlik ko'rsatishga ; material tanlash xatti xarakatni belgilash , natijani baxolashga undash zarur.

Mexnat tarbiyasining vazifalari xilma hildir . Shuning uchun ular guruxlar bo'yicha turkumlarga ajratiladi.

Birinchi gurux vazifalari bolalarning mustaqil mexnat faoliyatiga pedagogik tasir ko'rsatish bilan belgilanadi

1. Bolalarni maqsad qo'yishga . mexnat malakalari , ko'nikmalar mehnat madaniyati bo'yicha kerakli materiallar va mehnat qurollarini tanlab olishga o'rgatish .

2. Bolalarda bo'lajak mehnat faoliyatini shakllantirish , mehnat jarayonini mehnatda qatnashuvchilar o'rtasida taqsimlash, mehnatda yaxshi natijalarga erishish malakalarni shakllantirish.

3. Mehnat faoliyatining dastlabki ijtimoiy sabablarini shakllantirish , buyumlar va xarakatlarga qiziqish uyg'otish orqali mehnat natijalariga erishish katta gruppalarda esa mehnatning ijtimoiy ahamiyatli ekanligini tushunib olish .

Ikkinchi gurux vazifalari kattalar mehnatiga ijobiy munosabatni tarbiyalashga qaratilgan .

1. Bolalarga kattalarni qanday natijalarga erishish uchun mehnat qilayotganini tushuntirish
2. Bolalarda mehnat ahliga hurmatni , ularga qo'lidan kelganicha yordam berish xoxishlarini tarbiyalash .
3. Kattalarning mehnat natijalarini asrab – avaylashga o'rgatish.

Uchinchi gurux vazifalari mehnat faoliyatida bola shaxsini shakllantirishga qaratilgan ;

1. Bolalarda mehnatsevarlik , xar qanday mehnatda qatnashish , boshlagan ishini oxiriga yetkazish uchun bor kuchini ayamalik , o'z shaxsiy mehnatiga nisbatan to'g'ri munosabatni tarbiyalash.
2. Javobgarlik , mustaqillik maqsadga qaratilganlik, tashabbuskorlik va faollik sabr- matonatlik kabi bola shaxsining axloqiy sifatlari tarkib topadi.

Maktabgacha tarbiya muassalarida mehnatni xolisona baxolash qanday amalga oshiriladi ;

Bolalarning o'ziga mehnat o'rgatish .

Kattalar mehnati bilan tanishtirish.

Balalar mehnatining mazmuni “Bolalar bog’chasida talim va tarbiya” dasturining birinchi va ikkinchi kichik guruxlar “Mehnat faoliyati uchun zamin tayyorlash” bo’limida o’rta va maktabga tayyorlov guruxlarida esa “Mehnat” bo’limi berilgan .

Kattalar mehnati bilan tanishtirish xamma yosh guruxlari uchun “Mashg’ulotlarda talim berish” “Tevarak atrof bilan tanishtirish” va ijtimoiy xayot xodisalariga qiziqishni tarbiyalash “bo’limlarida berilgan . Katta va maktabga tayyorlov guruxlar uchun qo’l mehnatining mazmuni “Qurilish yasash bo’limlari berilgan . Dasturda bolalar mehnatiga mustaqil faoliyat va axloqiy tarbiyaning vositalari sifatida qaratiladi.

Talim aqliy tarbiyaning eng qimmatli vositasidir. Talimning ahamiyati unda tarbiyachining yetakchi o’rin egallashi . bolalarga programmada nazarda tutilgan bilimlar berishi ko’nikma va malakalar xosil qilishi , bularni o’zlashtirib olishi va qo’llash yuzasidan bolalar faoliyatini tashkil etishi bilan belgilanadi . Bilim va malakalar programmasining mavjudligi tarbiyachiga xar bir bolaning ularni o’zlashtirib olishi nazorat qilish bolaga aloxida yondashish xamda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning programmada berilgan aqliy rivojlanish darajasiga olib kelishga inkon beradi. Mashg’ulotda bolalarning tafakkuri va nutqi rivojlanadi , bilishga bo’lgan qiziqishlari shakllanadi . Bolalar o’quv faoliyatining kattalarning gapini tinglay bilish ularning ko’rsatmalariga muvofiq xarakat qilish muayyan bir faoliyatda kerakli natijalarga erishish , erishilgan natijani uning namunasiga muvofiqligi nuqtai nazaridan baxolash , muvaffaqiyatsizlik sabablarini taxlil qilish malakasi va xokazolarni egallab oladilar.

Test

1. Aql keng manoda sezish va nimadan boshlab to tafakkur va xayolni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir ?
 - a) diqqat
 - b) xotira
 - c) idrok
 - d) xayol
2. Mehnat qilish muntazam tarzda bo'lib unda xamma bolalar ishtirok etsa va kattalar mehnati bilan tanishtirib borilsa u qanday vositaga aylanadi ?
 - a) tarbiya
 - b) mehnat
 - c) o'ziga xizmat
 - d) aqliy tarbiya
3. Xona va bog'cha maydonchasini yig'ishtirish , stolni bezatish , idish tovoqlarni yig'ishtirish qanday mehnat turiga kiradi ?
 - a) xo'jalik maishiy
 - b) qo'l mehnati
 - c) tabiatdagi mehnat
 - d) o'z- o'ziga xizmat
4. Bu jamoa uchun mo'ljallangan mehnat faoliyatining shakli bo'lib u majburiy tartibda bajariladi qaysi mehnat turida 2 chi kichik guruxda yil oxiridan boshlanadi ?
 - a) natija
 - b) novbatchilik
 - c) o'z – o'ziga xizmat
 - d) mehnatning sababi
5. Mehnat har qanday moddiy va manaviy boyliklarning asosiy manbai , shu bilan birga kimni xar tomonlama kamol toptirishning muxim vositasidir ?
 - a) bolalarni
 - b) odamlarni
 - c) shaxsni
 - d) kattalarni
6. Mehnat bolalarda qanday qobiliyatlarni egallashni talab etadi ?
 - a) diqqat , o'tkir zexnlilik
 - b) topqirlik
 - c) bilib olingan malaka va ko'nikmalarni amaliyatda bilish
 - d) ijodkorlik qobiliyatlarini

7. Bolalarning tushunishi va ularda nutqning paydo bo'lishi ularning qaysi jixatdan o'sishining ancha yuksak bosqichidir ?
- a) sensor
 - b) estetik
 - c) jismoniy
 - d) aqliy
8. Qaysi fan aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali xal qilish yo'llarini toppish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanish qonuniyatlarini va imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi ?
- a) pedagogika –psixologiya
 - b) ona –tili – adabiyot
 - c) tarix- huquq
 - d) pedagogika – adabiyot
9. Nima bolaning aqliy rivojlanishini xarakatga keltiruvchi qudratli kuchdir?
- a) bilish
 - b) qiziqish
 - c) o'yin
 - d) faoliyat
10. Xayot talimning necha xil yo'l bilan amalga oshirishni taqazo etmoqda?
- a) 2 xil
 - b) 3 xil
 - c) 4 xil
 - d) 5 xil
11. Xayol bolaning xayoti jarayonida uning faoliyatida nima tasirida tarkib topadi ?
- a) diqqat
 - b) bilishga doir
 - c) talim va tarbiya
 - d) xikoyalar
12. Necha yoshga kelib , bolalarda o'z diqqatini mustaqil so'ratda to'plash malakalari xosil bo'ladi , lekin ular diqqatini uzoq vaqt bir joyga qarata olmaydilar ?
- a) 2-3 yosh
 - b) 4-5 yosh
 - c) 6-7 yosh
 - d) 3-7 yosh
13. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga talim berish g'oyasi birinchi bo'lib chet el pedagogikasida chex pedagogi kim tomonidan yaratilgan ?

- a) Yan Amon Kaminskiy
 - b) Frebel
 - c) F. Odoevskiy
 - d) Ushinskiy
14. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vositalari nechta ?
- a) 2ta
 - b) 3ta
 - c) 4ta
 - d) 5ta
15. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalaridan 4 chisi nima ?
- a) bilishga doir ruxiy jarayonlar
 - b) aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish
 - c) bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlar
 - d) bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar
16. Faqat shaxsiy moddiy farovonlik manbaigina emas balki xalqqa xizmat qilish vatanimiz gullab yashnashi va uning qudratini oshirishning asosi xamdir bu nimaga berilgan tarif ?
- a) xotira
 - b) tafakkur
 - c) mehnatkash
 - d) mehnat
17. Bog'cha yoshidan boshlab bolalarga mehnat tarbiyasi berish ularning qaysi jixatdan xam rivojlanadi ?
- a) madaniy –geginik
 - b) aqliy tarbiya
 - c) estetik tarbiya
 - d) aqliy – axloqiy tarbiya
18. Qaysi tarbiya turi bolalarda xam jismoniy xam aqliy ravishda uyg'un olib boriladi ?
- a) aqliy tarbiyalash turi
 - b) sensor tarbiya turi
 - c) aqliy kamolot turi
 - d) jismoniy tarbiya turi
19. Qaysi tarbiya bolalarning hamma faoliyatlarida amalga oshiriladi ?
- a) aqliy tarbiya
 - b) aqliy kamolot
 - c) sensor tarbiya

d) hammasi to'g'ri

20. "Men hozirda o'zimda bor bo'lgan hamma narsani o'sha yoshlik chog'imda egallab olganmanki , egallaganda xam shunchalik ko'p shunchalik taz egallaganmanki , butun qolgan xayotimda bu egallagan narsamning yuzdan birini xam egallaganim yo'q . Besh yoshli boladan mengacha atiga bir qadam yangi tug'ulgan chaqaloqdan besh yoshli bolagacha esa masofa juda uzoq " bu so'zlarni kim aytgan ?

a) D. Ushinskiy

b) Komenskiy


c) M. Sechenov

d) N. Tolstoy

Krassvord

1. Kim "Onalar maktabi " kitobini kichik bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturi xamda metodikasini juda sinchiklab o'rganib chiqqan ?
2. Nima bolalarning aqliy rivojlanishini xarakatga keltiruvchi qudratli kuchdir ?
3. Dastlab bolalarda faqat qanday diqqat rivojlanadi?
4. Bolalarning tushunishi va ularda nutqning paydo bo'lishi ularni qaysi jixatdan o'sishini ancha yuksak bosqichidir ?
5. Bu bolalar mehnatining bir turi bo'lib unda bolalar ilk yoshidan boshlab mustaqil ovqatlanishga yuvinishga , keyinish va yechinishga , o'yinchoqlarni yig'ishtirib qo'yishga o'rgatiladi bu qaysi mehnat turi ?
6. Qaysi tarbiya bolalarning hamma faoliyatlarida amalga oshiriladi ?
7. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy tarbiyalashning asosiy vositalari nechta ?
8. Bog'chadan tashqarida tashkil etiladigan ekskursiyalar qaysi guruxdan boshlab rejalashtiriladi ?
9. Bu metadda tarbiyachi bolalarga narsaning o'zini yoki tasvirini ko'rsatadi , ko'rsatish so'z bilan qo'shib olib boriladi bu qaysi metod ?

Krassvord



1- MAVZU: Mehnat faoliyati jarayonida bolalarni aqliy tarbiyalash

MA'RUZANI OLIB BORISH TEHNOLOGIYASI

1-MAVZU:	Bolalarni mehnat faoliyati jarayonida aqliy tarbiyalash
Talabalar soni: 48 - ta	O'quv vaqti 2- soat
Mashg'ulot shakli:	ma'ruza
Maruzaning rejasi	1. Aqliy tarbiya haqida umumiy tushuncha 2. Bolalarni mehnat faoliyati haqida tushuncha 3. Mehnat faoliyati jarayonida bolalarni aqliy tarbiyalash 4. Mehnat faoliyatida bolalarni aqliy rivojlantirishni amalga oshirish usuli.
Mashg'ulotning maqsadi: Bolalarni mehnat jarayonida ularni aqliy tarbiyalash . Ularni ishlarini nazorat qilish . Mehnat ko'nikmalari bilim va aqliy malakalarni tarkib toptirish.	
Ma'ruza mazmuni. Bolalarning mehnat faoliyatida ularni aqliy tarbiyasi uchun katta imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshidagi bolalarga beriladigan xar bir mehnat topshirig'i , qanchalik oddiy bo'masin , dastlabki paytlarda malum darajada aqliy vazifadan iborat bo'ladi . Bolaning mehnat faoliyatida va shaxsning mehnat qilish bilan bog'liq bo'lgan psixik sifatleri faqat bilim , ko'nikma va malakalar birligi tufayli tarkib topadi . . Xilma xil mehnat faoliyatida bolalarni aqliy rivojlantirish qo'yidagi sharoitlarda amalga oshiriladi . 1. bolalarni mehnat faoliyatiga o'rgatishga pedagog bilim ko'nikma va malakalarni to'g'ri qo'shib olib boradi . 2. u yoki bu mehnat topshiriqlarini bajarish bolalarni tashabbus , mustaqillik , ijodkorlik ko'rsatishga ; material tanlash , xatta xarakarni belgilash , natijani baxolashga undash zarur.	
Pedagogik vazifasi: Talabalarga bolalarni tarbiyalashda ularni mehnat jarayonida aqliy tarbiyalashni o'rgatish usul va vositalari bilan tanishtirish .	
O'qitish vositalari:	Tarqatma materiallar, plakatlar, slaytlar, ko'rgazmali qurollar.
O'qitish usuli va shakli:	Ma'ruza (vizuallashtirilgan) aqliy hujum, nazorat savollari, topshiriqlar.
O'qitish sharoiti:	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya. Monitoring va baholash: Og'zaki nazorat savol javob, riyting tizimi asosida baholash.
Monitoring va baholash:	Og'zaki nazorat, savol javob, o'z o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash

2.2.Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Faoliyatining mazmuni		
	O'qituvchi	Talaba

1 –bosqich Kursga va mavzuga kirish (10 minut)	Ma’ruzaning mavzusini doskaga yozadi, o’tilgan mavzuni talabalardan so’rab takrorlab oladi. “Менга айтилгчи” usuli yordamida.	
	1.2 Mavzuning rejalari va asosiy tayanch tushunchalari, foydalanish uchun zarur bo’lgan adabiyotlar ro’yxati bilan tanishtiradi. (1-ilova)	Yozib oladi.
2 –bosqich Asosiy bo’lim (60 minut)	2.1 Ma’ruza mavzusining 1 –savoli bo’yicha ma’ruza qiladi. Aqliy tarbiya haqida umumiy tushuncha . (1-2 shakl)	Yozib oladi
	Talabalarni faollashtirish uchun BBB jadallini to’ldirishni so’raydi (2 –ilova)	Tinglaydi yozib oladi. Topshiriqni bajaradi
	2.2.Ma’ruzaning Bolalarni mehnat faoliyati haqida tushuncha rejasini kichik ma’ruza asosida yoritib beradi. (3 shakl)	Tinglaydi yozib oladi
	Ma’ruzani 4 shakl orqali davom ettiradi, Aqliy tarbiya jarayonida bolalarni aqliy tarbiyalash to’g’risida talabalar fikrlarini o’rganadi	Yoz fikrlarini bildiradi
	2.3. Mehnat faoliyati jarayonida bolalarni aqliy rivojlantirish savolini tushuntirib beradi. (5-6-7 shakl)	Tinglaydi yozib oladi
3 –bosqich Yakuniy qism (10 minut)	3.1. Ma’ruzada qilingan har bir savol yuzasidan yakuniy xulosa chiqariladi	Tinglaydi
	3.2. Talabalarning bilim va ko’nikmalarini baholaydi	O’zini nazorat qiladi
	3.3 Bugungi kunda bolalar aqliy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni taxliliy yondashgan holda o’rganib kelishini uyga vazifa qilib beradi	Tinglaydi yozib oladi

2 – ilova

1 – o’quv topshiriq

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim

AMALIY MASHG'ULOT – 2

MEHNAT FAOLIYATI JARAYONIDA BOLALARNI AQLIY TARBIYALASH



Amaliy mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi.


Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 20-24 gacha	
O'quv mashg'ulotning shakli	Vizual amaliy mashg'ulot	
Amaliy mashg'ulotning rejasi	1. Aqliy tarbiya haqida umumiy tushuncha 2. Bolalarni mehnat faoliyati haqida umumiy tushuncha 3. Mehnat faoliyati jarayonida bolalarni aqliy tarbiyalash 4. Talim aqliy tarbiya vositasidir.	
	O'quv mashg'ulotining maqsadi: Mehnat tarbiyasi jarayonida bolalarni aqliy tarbiyalash ularda mehnat orqali bilim ko'nikma va malakalarni hosil qilish .	
Pedagogik vazifalar:		O'quv faoliyati natijalari:
- Talabalar Aqliy tarbiyaning vazifalari nechta to'g'risidagi bilimlarini savollar orqali tekshirish; - Aql deb nimaga aytiladi qiyosiy tahlil qildirishga imkoniyat yaratish; - Bolalarda mehnat faoliyati haqida tushuncha rejasini kichik guruhlar ichida ishlash usuli orqali tashkil qilish; - Talim aqliy tarbiya vositasidir .yuzasidan muammoli vaziyat hosil qilish.		- Savollarga javob berish Aqliy tarbiyaning vazifalari 4 ta to'g'risidagi bilimlarini namoyon etadilar. -Aql keng manoda sezish va idrok qilishdan boshlab tafakkur va xayolni o'z ichiga oladi qiyosiy tahlil qilish orqali mavzuni mustahkam o'rganib oladilar; - O'zaro fikr almashinish orqali, mustaqil fikrlarni bildiradilar va bilimlari yanada mustahkamlanadi. - Talim aqliy tarbiya vositasidir haqidagi bilimlarini mustahkamlab oladilar.
Pedagogik vazifalar:		O'quv faoliyatining natijalari
O'qitish uslubi va texnikasi.		Amaliy, muammoli xolatlarni yechish, aqliy hujum, kichik guruh, klaster.
O'qitish vositalari.		Proyektor slaydlar.
O'qitish shakli.		Individual, frontal, juftlikdan va guruhlarda ishlash.
O'qitish sharoitlari.		Proyektor bilan taminlangan slaydlar.

2.2.Amaliyning texnologik xaritasi

Ishlash bosqich-lari, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar

1. Bosqich. Kirish (3 minut)	1.1. Mashg'ulotni "Aktivator 3-2-1" usuli orqali tashkil etadi. 1.2. Bugungi mavzuning ahamiyatli tomonlariga to'xtalib o'tiladi.	1.1. Mavzu yuzasidan fikrlarini daftarlarida aks ettiradilar. 1.2 Fikrlar tinglanadi.
2. Bosqich: bilimlarni faollashtirish (2 minut)	2.1. O'quv faoliyatni baholash mezonlarini malum qiladi.	Mashg'ulot etaplardagi faoliyatga ko'ra ball olinadi baholanadi.
3. Bosqich: asosiy (65 minut)	3.1. Talabalar Aqliy tarbiyalashning vazifalari to'g'risidagi bilimlarini savollar orqali tekshiradi 3.2. Xilma xil mehnat faoliyatida bolalarni aqliy rivjlantirish qiyosiy tahlil qildirishga imkoniyat yarataди 3.3 Mehnat talimi jarayonida va uni tashkil etishning xamma shakllarida xalma xil metod va usullarda foydalanish rejasini kichik guruhlar ichida ishlash usuli orqali tashkil qiladi 3.4. Mehnat va aqliy tarbiya yuzasidan muammoli vaziyat hosil qiladi.	3.1.Javob beradi, aniqlik, kritadilar, mustaqil fikr yuritadi, bir biriga savollar beradi. 3.2.Topshiriqni bajaradilar. 3.3.O'z fikrlarini bildiradi, umumiy xulosalarga keladilar. 3.4. Muammoli vaziyatlardan chiqish yo'llarini birgalikda ko'rib chiqadilar.
4. Bosqich: Yakuniy (10 minut)	4.1. "Reflaksiya" mashqi orqali mavzu mustahkamlanadi va hulosa yasaydi. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarni reyting asosida baholaydi. 4.3. Kelgusi dars mavzusi e'lon qilinadi.	4.1. Mashg'ulot davomida o'rganilgan masalalar yodga olinadi. 4.2. O'quv jarayonida ishtirok etganlarni barchasi reyting asosida bahoga ega bo'ladi. 4.3. Yozib oladilar tayorlanib keladilar.





Maqola

Mehnat bolalarni hayotga tayyorlaydi.

O'sayotgan avlodni mehnatga tayyorlash ularda ko'nikma , malaka , bilimlarni egallashda yordam beradi . Bolalarni o'sishida jismoniy tomondan , aqliy , qobiliyatlarini ishga soladi Hayotga tayyorlaydi . Biz bolalarni guruxlarga ajratgan xolda ularga ishlarni taqsimlaymiz , bu bilan bolada oldinga maqsad qo'yib ko'nikmaga tayangan xolda ishlarni bajaradi .Katta va tayyorlov grupp bolalari uchun ko'p marta takrorlanadigan bir xil xarakatlarni mustaqil bajarishga , murakkabligi jixatidan asta sekin ortib boruvchi turli masalalarni xal qilishda qo'yiladigan talablarni birga qo'shib olib borish bolalarni maktabga tayyorlashning zaruriy usullaridan birini tashkil etadi . Mehnat bolalar uchun hamisha maroqli bo'lishi lozim . Bolalar uchun qiziqarli , ayni paytda majburiy bo'lgan topshiriqlarni bajargan vaqtda bolalarda o'zini boshqara bilish maqsadga erishish qilinishi kerak bo'lgan ishga o'z diqqatini qaratish zarur bo'lganda xarakatlarini tiyib qola bilish singari fazilatlar rivojlanadi . Bola mehnatning nima ekanligini bilib olmasdan , umuman xamma kishilar uchun mehnatning foydasi nimadan iborat ekanligini bilib olmasidan , bolani mehnatkash insonga xurmat ruxida tarbiyalab bo'lmaydi . Bolalarni kishilar mehnati bilan tanishtirish ularni xotirasini boyitadi , ularning

kuzatuvchanligini boyitadi , ko'pgina masalalar to'g'risida o'ylashga majbur qiladi va ularda rang barang murakkab his tuyg'ular uyg'otadi. Mana shu fazilatlar ichida har qanday foydali mehnatga hurmat bilan qarash xissi aloxida ahamiyatga egadir. Bolalar ozgina bo'lsada o'zlari to'plagan shaxsiy tajribalar davomida deyarli har qanday ishni bajarish xam qanchalik qiyinligi bilan tanishadilar. Bolalarni onalari va tarbiyachilari bolani rivojlanishi uchun foydali bo'lgan faoliyat turi mehnatga jalb qiladilar .

A .Poremskaya olib borgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki , mehnat bunday buyon xam bolari rivojlantirishning muhim sharti bo'lib qolishi uchun boladagi mustaqillikni rivojlantirish unda xarakat qilish istagini uyg'otish , foydali va jiddiy ishlarni bajargan vaqtda kollektiv muvaffaqiyatidan quvona olish xis tuyg'ularini tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir .

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak mehnat insonni ulug'laydi, mehnat bu insonlarning hayot mazmuni , moddiy va manaviy ehtiyojlarning asosidir . Bu haqda buyuk shoirlar , yozuvchilar ;Alisher Havoiiy , Furqat , Muqimiy , Hamza mehnatning insonni manaviy guzallashtiruvchi roliga mehnatsevarlikni tarbiyalashga va mehnat axlini qadrlashga katta o'rin beradilar. Orzu –tilak yo'li mehnat tagida ,
Xazinaning mo'li mehnat tagida.